

## **EDUCATION AS A KEY FACTOR IN HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT**

**Yuldashev Shamsiddin Kiyamiddinovich,**

**Samarkand State University, Faculty of Human Resources Management, Associate Professor of  
Sectoral Economics i.f.n. yuldashev.shamsiddin@mail.ru**

**Mullayeva Mehrangiz Ahtam qizi,**

**Samarkand State University, Student of the Faculty of Human Resource Management,  
mullayevamehrangiz@gmail.com**

**Annotation.** This article analyzes the essence of human capital, its importance today, the development of human capital and the positive results that can be achieved as a result. Also, proposals were made to raise the education system, which plays an important role in the development of human capital, to a new level in line with modern requirements, to train qualified personnel for new professions emerging in the labor market.

**Keywords.** Human capital, digital technologies, labor market, dual education system, qualified specialist

### **Аннотация.**

В данной статье анализируется сущность человеческого капитала, его современное значение, положительные результаты, которые могут быть достигнуты в процессе развития человеческого капитала. Также были внесены предложения по развитию системы образования, играющие важную роль для развитии человеческого капитала на новый уровень, соответствующих современным требованиям, для подготовки квалифицированных кадров для новых профессий, создающихся на рынке труда.

**Ключевые слова.** Человеческий капитал, цифровые технологии, рынок труда, система дуального образования, квалифицированные кадры.

Bugungi kunda ilm-fan rivojining yuksak darajaga ko`tarilgani, fan, ta'lim va ishlab chiqarishda integratsiyani ta'minlash orqali innovatsion g`oya va fikrlarning vujudga kelishi, taraqqiy etishi o`z navbatida raqamli inqilobning vujudga kelishiga asos bo`ldi. Mavjud soha va tarmoqlarni raqamli ko`rinishga o`tishi, davlat organlari, xususiy sektor hamda aholi o`rtasida onlayn tezkor muloqot imkoniyatlarini yaratdi. Bu kabi rivojlanishlar bir tomondan iqtisodiy barqarorlikni

ta'minlash, iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligining oshishi, yashirin iqtisodiyotning qisqarishi, korrupsiyaning asta-sekinlik bilan jamiyatdan siqib chiqarilishiga olib kelayotgan bo`lsada, ikkinchi tomondan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish hamda bu sohada eng muhim hisoblangan mutaxassis kadrlar muammosini ko`ndalang qilib qo`ydi. Endilikda iqtisodiy jihatdan taraqqiyotga erishishni istagan har bir mamlakat inson kapitalini rivojlantirishi, xalqaro maydonda raqobatbardoshlikni ta'minlash maqsadida inson resurslariga bo`lgan e'tiborni yanada kuchaytirishi asosiy masalaga aylandi. Prezidentimiz aytganlaridek: "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to`liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo`lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15-17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko`rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi. Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart"[1]. Agar ta'lim sifati yuqori bo`lgan davlatlarni misol tariqasida oladigan bo`lsak, AQSH YaIMning 7,5 foizini, Norvegiya 7,6 foizini, Xitoy esa 4 foizini ta'limga sarflaydi.

BMT taraqqiyot dasturi o`tkazgan tadqiqot natijalari yer yuzasida hozirgi kunga qadar to`plangan jami kapitalning 16 foizi moddiy ko`rinishdagi kapitalga, 20 foizi tabiiy boyliklarga va qolgan 64 foizi inson kapitaliga to`g'ri kelishini ko`rsatmoqda. 2018 yilda Jahon bankining "Mamlakatlar o`zgaruvchan boyligi" ma'rzasida, inson kapitali har qanday mamlakat boyligining asosiy qismini tashkil etishini takidlab, bu ko`rsatkich rivojlangan mamlakatlar boyligining 68 foiziga, rivojlanayotgan mamlakatlar boyligining 41 foiziga to`g'ri kelishini aytib o`tdi[2].

Bizga ma'lumki, mamlakatlar iqtisodiy o'sishni ta'minlashga harakat qilar ekan, avvalo, ishlab chiqarish hajmini oshirish, sanoat mahsulotlari tarkibini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini o`stirish, yo`llar va aloqa xizmatlarini yaxshilash, xususan, infratuzilmani rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Ammo, bugungi rivojlanishlar, bugungi taraqqiyot aholi salomatligi, egallagan bilim, malaka va ko`nikmalar, tajribasi va turmush tarzini o`zida mujassam etgan inson kapitaliga investitsiya kiritish ko`proq foyda va daromad olib kelishini tasdiqlab turibdi. Iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko`ra, inson kapitaliga individual investitsiyalar umumlashtirilganda, turli mamlakatlarda inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar bilan aholi jon boshiga to`g`ri keladigan daromadlar o`rtasidagi farq 10 foizdan 30 foizgacha bo`lishini ko`rsatdi[3]. Ayniqsa, inson kapitalining rivojlanishida muhim omillardan bo`lgan ta'lim va unga kiritiladigan sarmoyalar ham jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, ham qashshoqlik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar har bir qo'shimcha ta'lim yili inson daromadini o`rtacha 10 foizga oshirishini ko`rsatdi[3]. Bu fikrning isbotini Gana tarixi ham

tasdiqlaydi: 1999 yillarda va 2000 yillar boshida mamlakat ta'limga ketadigan xarajatlar miqdorini ikki barobarga ko`paytirish orqali asosiy ko`rsatkichlarni keskin oshirishga muvaffaq bo`ldi. Natijada, 1999 yildan 2012 yilgacha mamlakatda savodxonlik darajasi 64 foizga yetdi, qashshoqlik darajasi 61 foizdan 13 foizga tushdi[3].

Taniqli amerikalik iqtisodchi olim T.Shuls inson kapitalidan olinadigan foyda jismoniy kapitaldan ortiqligini isbotlab berdi va inson kapitaliga quyidagicha ta'rif berdi: "Kambag`al insonni farovonligini oshirish, yer, texnika vositalariga emas, balki bilimi bilan bog`liq". Shuningdek, A.Smit fikricha, ishlab chiqarish hajmining ortishi avvalo xodimning salohiyatiga bog`liq, keyingi navbatda esa xodimning ish qurollari bilan qurollanganligidir"[4]. Bu fikrlarda umumiylilik mayjud bo`lib har ikki iqtisodchi olim ham insonning intellektual salohiyati, bilim, ko`nikma va malakalarini hal qiluvchi omil sifatida qarab, an'anaviy resurslarga qaraganda samarasi yuqori va inson hayotiy farovonligi bilan bir qatorda iqtisodiy imkoniyatlarni oshiruvchi kapital sifatida talqin qilmoqda.

Inson kapitalini rivojlantirish har bir mamlakat uchun ko`plab ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Xususan, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantiradigan faqatgina uning moddiy boyliklari emas, balki barcha sohalarda, ayniqsa zamonaviy kasblarni mukammal egallagan mutaxassis kadrlarning intellektual salohiyatlari va ularni rivojlantirishga sarflangan sarmoya hisobiga ko`payadi va jismoniy kapital singari ma'lum bir vaqt oralig'ida emas, agar inson kapitalini rivojlantirish uchun har tomonlama shart-sharoitlar yo`lga qo`yilsa muntazam ravishda daromad keltiradi.

Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim tizimini zamon talablaridan kelib chiqib modernizatsiya qilish, mehnat bozorini yangidan-yangi vujudga kelayotgan kasblarga moslashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Bugungi kungacha inson kapitalini o`lchashning aniq o`lchov va me'yorlari ishlab chiqilmagan, shu boisdan bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini yo`lga qo`yish orqali milliy standartlarni ishlab chiqish;
2. Oliy ta'limda dual ta'lim tizimini joriy qilish. Bu orqali nazariy bilimlar bilan bir vaqtda amaliy bilimlarni egallah, nazariy jihatdan o`rganilgan bilim va ko`nikmalarni amaliyatda qo`llash orqali mustahkamlash va tajriba orttirish imkoniyati vujudga keladi;
3. Mehnat bozorida vujudga kelayotgan yangi kasblarni qisqa muddatda o`zlashtirish hamda xodimlarning malakalarini muntazam oshirib borish maqsadida oliy o`quv yurtlari qoshida alohida o`qitish markazlari joriy qilish;

4. Ishlab chiqarish, fan va ta'lif o'rtaida integratsiyani ta'minlash maqsadida oliy ta'lif muassasalari tarkibida innovatsion markazlar ochish. Bu markazlarning faoliyati ilm-fanning eng so'nggi yangiliklari va yutuqlarini o'r ganib chiqish va amaliyotga joriy qilish bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash va mavjud kadrlarning malaka ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim;
5. Oliy ta'limga jalb qilinayotgan kadrlar o'rtaida tabaqalashtirilgan tizimni joriy qilish ya'ni har tomonlama faol talaba-yoshlarni rivojlangan davlatlarning nufuzli oliy ta'lif muassasalariga tajriba almashish maqsadida yuborish tizimini joriy qilish;
6. Mehnat bozorida raqamli texnologiyalar va IT- sohalari bo'yicha vujudga kelayotgan yangi kasblarga mutaxassis kadrlarni tayyorlash, xususiy va davlat sektorida faoliyat yuritayotgan xodimlarda katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida, bu sohalar bo'yicha o'qitish samarali yo'lga qo'yilgan xorijiy davlatlarning o'quv markazlari bilan kadrlar almashinuvni tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish (Masalan, Buyuk Britaniya, Singapur va boshqa davlatlar bilan).

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. [www.central.asia-news.com](http://www.central.asia-news.com). Juhon banki yorqin kelajak uchun inson kapitaliga investitsiya kiritishga chaqirmoqda.
3. [www.xs.uz](http://www.xs.uz). Inson kapitalini rivojlantirishdagi uzilishlar - Xalq so'zi – Xs.uz.
4. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org). Inson kapitaliga oid iqtisodchi olimlar qarashlari.